

Jizzakh State Pedagogical Institute



**Journal of Preschool
Education**

*The faculty of pre-school
education*

TILSHUNOSLIKDA SINONIM, ANTONIM VA OMONIMLAR.

Ayubova Aziza

Payzimurodova Sojida

Anotatsiya: Sinonimlar haqida tushuncha, tilni sinonimlar bilan boyitish usullari, sinonimlarni tilshunoslikdagi o'рни. Antonim haqida tushuncha, antonimning badiiy san'atdagi o'рни. Omonim haqida, Omonimlarning badiiy san'atdagi o'рни.

Kalitso'zlar: Sinonimiya, dialektlar, tazod janri, antonimlar, omonimlar, lug'aviy va grammatik omonimlar.

Sinonimlar - bir umumiy ma'noga ega bo'lgan qo'shimcha ma'nosi uslubiy va boshqa munosabat kabilarni ifodalovchi xususiyatlari bilan o'zaro farqlanadigan til birliklari – so'z, ibora, sintaktik birlik va boshqa, boshqatdan, qayta, qaytadan, yangidan, takror kabi so'zlarni sinonim so'zlar hisoblanadi. Til birliklari bir xil ma'noga ega bo'lish hodisasi sinonimiya deyiladi. Bu hodisa qanday til birliklariga xosligiga qarab, lug'aviy sinonimiya, frazeologik sinonimiya, sintaktik sinonimiya kabilarga bo'linadi. O'zaro sinonim bo'lgan so'zlar sinonimlar qatori deyiladi. Sinonimlar qatori 2 va undan ortiq so'zdan tashkil topgan bo'ladi. Masalan: buloq-chashma, sinonim qatori 2 so'zdan, yuz-aft-bashara-bet sinonim qatori ko'p so'zdan tuzilgan. Ko'p ma'noli so'zlar muayyan ma'nosi yoki ma'nolari bilan bir yoki birdan ortiq sinonim bo'laoladi. Sinonimlar tilshunoslikka tegishli. Yunon tilidan tarjima qilinganda, u sinonimga o'xshaydi. Sinonim lug'at dunyoqarashingizni kengaytrish, maqola, hikoyani rang-barang va qiziqarli qilish imkonini beradi. Sinonimlar turlicha eshitiladi, lekin bir xil ma'noga ega. Ular bir xil uslubda bo'lishlari shart emas. Bular oddiy yoki so'zlashuv janridagi so'zlar, oddiy va she'riy versiya bo'lishi mumkin.

Tilni sinonimlar bilan boyitish uzluksiz amalga oshiriladi, sinonimlarni farqlash ham uzluksiz sinonimiyasini butunlay yo'qotguncha davom etadi. Albatta, sinonimlarning bunday harakati sababini nafaqat til taraqqiyotining o'ziga xos qonuniyatlari va individual tafakkur qonuniyatlaridan, balki uning ijtimoiy shartlanishini tahlil qilishda ham izlash kerak. Tilni sinonimlar bilan boyitish turli

yo'llar bilan amalga oshiriladi. Asosiy usullardan biri dialektlarni kesib o'tish milliy tilning mustahkamlanishi davrida, qisman undan ham oldinroq-yirikroq qabila dialektlarning shakillanishi davrida, har bir shevada ma'lum hodisa va predmentlarni ifodalash uchun o'ziga xos lug'at mavjud bo'lganligi tufayli, hosil bo'lgan tilda ko'pincha bir xil hodisalarni ifodalovchi dubletlar bo'ladi. Ayniqsa, bunday belgilarning takrorlanishi uy ro'zg'or buyumlari bilan bog'liq bo'lgan so'zlashuv nutqining lug'atini qamrab oladi: So'zlashuv nutqi lug'ati bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda adabiy tilda teng sinonimlar vazifasini bajaradigan ushbu turdagi so'zlarning hududiy taqsimlanishi ko'rsatadi. Taqqoslang: rezavorlar uchun ruscha belgilar –boletus –lingonberry, suyak –tosh, bu turli yozuvchilar bilan o'zlarining ona lahjalariga qarab farqlanadi.

Antonimlar zid ma'noli til birligi hisoblanadi, uning 3 turi mavjud 1) Leksik antonym: baland-past, uzun-qisqa. 2) Affik antonym: suvli-suvsiz. 3) Sintaktik antonym: yuz-bashara. Antonim-grekcha so'zdan olingan bo'lib "anti" zid, qarama – qarshi "onoma"-nom degani bo'lib, qarama-qarshi tushunchalarni ifodalaydigan so'zlardir, ya'ni ma'nosi bir-biriga zid ma'noli so'zlar antonym deyiladi.

Antonimik juft hosil bo'lishi uchun ikkita mustaqil tushuncha ma'no jihatdan o'zaro qarama qarshi bo'lishi kerak. Fe'llardagi bo'lishli –bo'lishsizlik xususiyati antonimlikni vujudga keltirmaydi. Antonimlar ba'zan juft holda qo'llanib ma'no kengaytradi yoki ma'no ifodalaydi kunu-tun, (har doim). Demak, bir so'z sinonimik qatorni tashkil etuvchi so'zlarning har biri bilan antonym bo'la oladi: qattiq-yumshoq, tez –sekin, chiroyli-go'zal-xushroy, xunuk-badbashara-taviya. Antonim badiiy nutqda qo'llanib tazod yaratish uchun xizmat qiladi: Yaxshining ehsoniga yomonning boshi og'rir. Antonimlarni kel-kelma, bor-borma kabi birliklardan farqlamoq kerak, bu birliklar fe'lning bo'lishli-bo'lishsiz shaklidir. Badiiy adabiyotda zid ma'noli so'zlarni bir-biriga zidlash asosida badiiy san'at hosil qilinadi. Bunday san'atga tazod san'ati deyiladi.

Omonimlar-umumiy ma'no unsurlariga ega bo'lmagan, tasavvuriy bog'lanmagan, lekin bir xil yozilib, bir xil yozilib, bir xil aytiladigan so'zlar; ular orasida semantik aloqa bo'lmaydi. Ana shunday so'zlarning tilda mavjud bo'lishi va shunga bog'liq

hodisalar omonimiya deyiladi. Omonimning lug'aviy va grammatik ko'rinishlari farqlanadi.

Omonimning tilde vvv paydo bo'lish sabablari turlichadir, avvallari har xil aytilib, bir xil eshitilavdigan so'zlar talaffuzning tarixiy jarayonda tovush almashinishi yoki talaffuz o'zgarishi natijasida bir –biriga mos kelib qolishi; Ot-ism, Ot-hayvon, Ot-olov, O't-o'simlik boshqa tillardan o'zlashgan so'zlarning talaffuz va yozilish jihatidan ona tilidagi so'zlarga mos kelib qolishi mumkin. Omonim mumtoz adabiyotda tajnis san'ati va tuyuq janrini yaratishda, askiya payrovlarida esa so'z o'yini va qochiriqsifatida ishlatiladi. So'z ustalari, ayniqsa, shoirlar Xorazmiy, Lutfiy, Novoiy, Bobur, So'fi Olloyor va boshqalar poetik ta'sirchanlikni oshirishda Omonimlardan mahorat bilan foydalanganlar.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Azim Hojiyev .O'zbek tili haqida Toshkent 2000
2. Sodiqov .A O'zbek tili grammatikasi T.1975, 1981.
3. Dadaboyeva H.A Tilshunoslik nazariyasi va matadologiyasi T 2004.
4. Tilshunoslikga kirish .Qo'llanma .Xolmonova Z.T.T 2000